



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'liqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	





Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# AQLI ZAIF BOLALARDA KOMMUNIKATIV FAOLIYATNING ONTOGENEZDA SHAKLLANISHI

Hamraqulova Durdona Dilshod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0004-0619-6240

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogenez jarayonida shakllanishining psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarda muloqot ehtiyojining rivojlanishi, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Shuningdek, aqli zaif bolalarning bilish faoliyati xususiyatlari, muloqot jarayonining shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv hamda emotsional-irodaviy sohaning shakllanishidagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada kommunikativ faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan korreksion-pedagogik yondashuvlarning mazmuni va samaradorligi ham ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** aqli zaif bolalar, intellektual nuqson, kommunikativ faoliyat, ontogenez, muloqot, nutq rivojlanishi, kommunikativ kompetensiya, korreksion-pedagogik ishlar, ijtimoiy moslashuv, bilish faoliyati.

**Abstract:** This article analyzes the psychological and pedagogical characteristics of the formation of communicative activity in children with intellectual disabilities during ontogenesis. The study highlights the development of communication needs in children with intellectual impairments and identifies the factors influencing the formation of speech and communicative competencies. Particular attention is paid to the cognitive activity of such children and the role of communication in personality development, social adaptation, and emotional-volitional growth. The article also substantiates the content and effectiveness of corrective and pedagogical approaches aimed at enhancing communicative activity.

**Key words:** children with intellectual disabilities, intellectual impairment, communicative activity, ontogenesis, communication, speech development, communicative competence, corrective-pedagogical work, social adaptation, cognitive activity.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы психолого-педагогические особенности формирования коммуникативной деятельности у умственно отсталых детей в процессе онтогенеза. Освещены особенности развития потребности в общении у детей с интеллектуальными нарушениями, а также факторы, влияющие на формирование речевых и коммуникативных компетенций. Рассмотрены особенности познавательной деятельности умственно отсталых детей, значение коммуникативного процесса в развитии личности, социальной адаптации и эмоционально-волевой сферы. Кроме того, научно обоснованы содержание и эффективность коррекционно-педагогических подходов, направленных на развитие коммуникативной деятельности.

**Ключевые слова:** умственно отсталые дети, интеллектуальное нарушение, коммуникативная деятельность, онтогенез, общение, развитие речи, коммуникативная компетенция, коррекционно-педагогическая работа, социальная адаптация, познавательная деятельность.

## KIRISH

Muloqot, kommunikativ harakatlar muloqotning tashqi ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqalar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun suhbatdosh ma'lum muloqot qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak. Ularning shakllanishi aloqa vositalarini o'zlashtirishni ham, doimiy ravishda o'zgarib turadigan holda ushbu vositalardan aloqada yetarli darajada foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi.


Aqli zaif bola nutqni egallashning o'ziga xosliklarini tekshirish, ular bilan ishlash mazmuni va usullarini ta'lim jarayonida, ya'ni nutqni egallash uchun eng ma'qul bo'lgan davrda o'rganish muhimdir. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan me'yorida rivojlanayotgan tengdoshlari orasidagi xarakterli farqlardan biri – ruhiy jarayonlarning yetarli rivojlanmasligi hisoblanadi.

Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklar ularning bog'lanishli nutqini shakllantirishda bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Materialning ma'nosini anglash qiyinchiliklari, hodisalarning mantiqini tushuna olmaslik, vaqt haqidagi tasavvurlarning yetishmasligi, mavzudan chalg'ib ketish, shuningdek, tevarak-atrofdagi predmet va



hodisalar haqidagi yetarli ma'lumotga ega emasliklari oqibatida ularning so'z boyliklari kambag'allashadi va muloqotga kirishishni qiyinlashtiradi.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksion ta'lim va tarbiyalash tizimida bilish faoliyati, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalar, emotsional-irodaviy soha, mustaqillik ko'nikmalari, o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari, ijtimoiy moslashuv, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik hamda shaxsning har tomonlama uyg'un rivojlantirishini ta'minlash muhim o'rin tutadi (1-rasmga qarang).



1-rasm: Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar korreksion ta'lim va tarbiya tizimining maqsadi

Bolaning ushbu yo'nalishlardagi rivojlanishi, avvalo, kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot qilish orqali amalga oshadi. Atrofdagi insonlar bilan muvaffaqiyatli o'zaro munosabat tajribasi, konstruktiv kommunikativ ko'nikmalar hamda muloqotdagi faol pozitsiya bolaning umumiy rivojlanishiga - shaxsiy, intellektual va nutqiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ular ijobiy o'z-o'zini baholashning, atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatning va musbat emotsional fonning shakllanishiga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ ko'nikmalar o'ta murakkab psixologik jarayon bo'lib, kommunikativ qobiliyatlar asosida rivojlanadi, kommunikativ-faoliyat kognitiv, o'z-o'zini baholash, hissiy va shu kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi<sup>[6]</sup>. Ushbu tarkibiy qismlar bir-biri bilan chambarchas bog'liqlikni tashkil etadi va qayta aloqa faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Psixologik lug'atda "Kommunikativ" tushunchasi "ikki yoki undan ortiq insonlarning kognitiv yoki affektiv-baholovchi xarakterdagi ma'lumotlar almashinuvidan iborat bo'lgan o'zaro ta'siri" deb ta'riflanadi<sup>[1]</sup>.

Bir so'z bilan aytganda kommunikativ ko'nikmalar muloqot qobiliyatini rivojlantirish, fikr bildirish, uni baholash va himoya qilish, tinglash qobiliyatini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan yaxlit jarayondir<sup>[1]</sup>. Muloqot insonlarning amaliy o'zaro munosabatlariga kiradi va ularning faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilishni ta'minlaydi.

L.S.Vigotskiy, D.B.Elkoninlarning fikricha, bolaning kommunikativ faoliyati bola psixikasining motivatsion-ehtiyoj va operatsion-texnik sohalarining rivojlanishi bilan belgilanadi. Bu jarayon rivojlanishning bir necha bosqichlaridan o'tadi. Rivojlanishning har bir bosqichi ko'plab yangi shakllanishlar bilan tavsiflanadi. Bolalarda kommunikativ ko'nikmalarga ehtiyoj 6 – 7 yoshda sezilarli darajada ortadi<sup>[9]</sup>.

Rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan ko'plab bolalarda erta yoshdanoq ikkilamchi, reaktiv xarakterdagi emotsional buzilishlar yuzaga keladi. Ular o'ziga ishonchsizlik hissi, nutqiy muloqotdan qo'rqish, kayfiyatning pasaygan fonida bo'lish, haddan tashqari xafagarchilikka berilish va xavotirlanish kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Bularning barchasi bolaning atrofdagi olam bilan samarasiz va nosog'lom o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladi<sup>[4]</sup>.

Mazkur emotsional buzilishlar bolaning asab tizimini yanada zaiflashtirib, turli nevrotik holatlarning (duduqlanish, enurez, qo'rquvlar, ixtiyorsiz harakatlar – tiklar va boshqalar) rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli bunday bolalar kommunikativ faoliyatini korreksiya qilishga, kattalar va tengdoshlari bilan muloqot tajribasini kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar. Muloqotning bolaning psixik jarayonlari umumiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha:

- mazkur toifadagi bolalarda dastlabki nutqiy ko'rinishlar gugulash davrining bo'lmasligi yoki kechikishi (bu keyinchalik nutqni egallash uchun zarurdir);

- dastlabki so'zlarning kechikib hosil bo'lishi;
- so'z birikmalarini egallash davrining sekin va qiyinchilik bilan kechishi;
- so'zlardan sodda gaplarni tuzish uchun uzoq vaqt talab etilishi;
- nutqiy ijodiyotda mustaqillikning yetishmasligi;
- fonetik kamchiliklarning uchrashi;
- nutqiy faollik darajasining pastligi;
- nutqiy muloqot "kambag'alligi" kuzatiladi<sup>[3]</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu muammoning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish masalasiga G'.B.Shoumarov, L.R.Muminova, R.Shomahmudova, K.M.Mamedov, A.Sagatov, M.Y.Ayupova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Xamidova, M.F.Xakimova, D.Y.Maxmudova, V.S.Raxmanova, N.Abidova, N.Musayeva, X.S.Akramova, M.Arslanova, A.O.Abdunazarov, I.Xamrayeva va boshqa olimlar katta hissa qo'shganlar. Ularning ilmiy tadqiqotlarida intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarning muloqot jarayoni, kommunikativ rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy munosabatlarga kirishishdagi qiyinchiliklari hamda ularni korreksiyalash yo'llari yoritib berilgan.

Ma'lumki, intellekt buzilishiga ega bo'lgan bolalar guruhi polimorf xususiyatga ega bo'lib, bu guruhga turli xil kasalliklarga chalingan bolalar kiradi va ularning umumiy belgisi intellektual faoliyatning turg'un buzilishi bilan tavsiflanadi.

Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda bosh miyaning organik shikastlanishi natijasida yuzaga kelgan bilish faoliyatining turg'un va qaytarilmas buzilishi kuzatiladi. Intellektual faoliyatning shakllanishi va rivojlanish imkoniyatlari asab tizimi tomonidan kechirilgan kasalliklarning og'irlik darajasi bilan belgilanadi<sup>[6]</sup>.

Shuningdek, shakllanib bo'lgan intellektning buzilishi – demensiya ham ajratib ko'rsatiladi. Demensiya avval egallangan ko'nikmalar va bosh miya po'stlog'ining oliy funksiyalarining tobora yo'qolib borishi bilan tavsiflanadi.

Aqli zaif bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan ko'plab olimlar shug'ullanganlar. Jumladan, J.I.Shif, A.N.Smirnova, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn va boshqa tadqiqotchilar ushbu masalani keng tadqiq etganlar.

Maxsus pedagogikaning ilmiy nazariy asoslarini ishlab chiqqan olimlar L.S.Vigotskiy, R.M.Boskis, T.A.Vlasova, V.I.Lubovskiy, L.Mo'minova, G'.Shoumarov hamda boshqa ko'plab tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, ma'lum bir nuqsonga ega bo'lgan bolaning rivojlanishi bolalar rivojlanishining umumiy qonuniyatlari asosida kechadi, shu bilan birga u o'ziga xos xususiyatlar bilan ham tavsiflanadi. Bu o'ziga xoslik faqat zararlangan a'zo bilan bevosita bog'liq funksiyalar rivojlanishidagina emas, balki bolaning butun psixik rivojlanishida ham namoyon bo'ladi. Biror a'zoning erta davrda zararlanishi psixik rivojlanishda qator ikkilamchi xususiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu holat anomal rivojlanishning umumiy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi.

Maxsus psixologiya va pedagogika sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar (A.R.Luriya, V.I.Lubovskiy, L.A.Novikova, E.N.Pravdina, D.Nurkeldiyeva, N.Musayeva, F.Qodirova, M.Xakimova va boshqalar) shuni ko'rsatadiki, intellektual nuqsoni bo'lgan turli yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy kamchiligi atrofdagi olamni bilish jarayonining yaqqol darajada cheklanganligi bilan tavsiflanadi.

Bosh miya po'stlog'ining diffuz zararlanishi uning normal faoliyatini buzadi hamda yangi shartli bog'lanishlarning shakllanishini sekinlashtiradi. Nerv jarayonlarining inertligi va bosh miya po'stlog'ining bog'lanish hosil qilish funksiyasining sustligi sezgi, idrok va tasavvurlar kabi muhim psixik jarayonlarning to'planishi hamda rivojlanishini kechiktiradi.

Miyaning ayrim qismlarining markazli zararlanishi natijasida intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda harakat sezgilarining o'ziga xos buzilishlari kuzatiladi. Bu holat harakatlarning sustligi, sekinligi va tarangligi bilan namoyon bo'ladi.

Analizator faoliyatidagi nuqsonlarga esa tez-tez uchraydigan g'ilaylik (strabizm), ko'z tubidagi o'zgarishlar, yaqinni ko'rish nuqsoni (miopiya), shuningdek, ko'rish orqali nozik farqlash qobiliyatining pasayganligi kiradi. Bu kamchiliklar bolalarning atrof-muhitni idrok etishi va bilish faoliyatining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda nutq buzilishlarining asosiy ko'rinishlaridan biri nutq faoliyatining barcha bosqichlari shakllanishining kechikishi hisoblanadi. Nutqning shakllanishi muammosi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishga bag'ishlangan maxsus psixologiya va pedagogikaning markaziy masalalaridan biridir<sup>[5]</sup>.

Mazkur yo'nalishda professor V.G.Petrova hamda uning rahbarligida N.V.Tarasenko, S.A.Goncharova, T.A.Protsko kabi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan nutq faoliyatining shakllanish jarayoni har tomonlama va ko'p



qirrali tarzda o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, nutqiy faoliyatning shakllanish qonuniyatlari hamda ularni korreksiyalash yo'llarini aniqlashga xizmat qilgan<sup>[7]</sup>.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotchilar nutq rivojlanishining kechikishida harakat (motor) sohasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham muayyan rol o'ynashini ta'kidlaganlar. Bu holat nutq-harakat sezgilari va idrokining aniqligi hamda muvofiqlashganligini buzadi. Intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarda faoliyatning barcha turlari bilan nutq o'rtasida nomuvofiqlik kuzatiladi. Bunday bolalar uchun o'z harakatlarini og'zaki ko'rsatmalar va nutqiy yo'riqnomalarga bo'ysundirish qiyinchilik tug'diradi. Natijada ular topshiriqlarni bajarishda nutq orqali berilgan ko'rsatmalarni to'liq anglash va ularga mos ravishda harakat qilishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar.

Normal psixikaning shakllanishi asab tizimining sog'lom holati, organizmning umumiy jismoniy rivojlanishi hamda bola tug'ilgan paytdan boshlab to'g'ri pedagogik ta'sir ko'rsatilishiga bog'liq. Intellektual nuqsoni bo'lgan bola ham sog'lom bola kabi rivojlanishning barcha bosqichlaridan o'tadi va umumiy rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunadi. Biroq asab tizimidagi kasallik yoki shikastlanish uning psixik rivojlanishiga o'ziga xos xususiyatlar kiritadi.

Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bola sog'lom tengdoshlariga nisbatan kattalar bilan moslashuvchan muloqot bosqichida ancha uzoq vaqt qolib ketadi. Normal rivojlanayotgan bolada ota-onalar bilan muloqotga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga sifat jihatidan o'zgarib, muloqot mazmunining boyishi hisobiga rivojlanib boradi.

Intellektual nuqsoni bo'lgan bolada esa muloqotga bo'lgan ehtiyoj ko'proq g'amxo'rlik, yordam va qo'llab-quvvatlash zarurati bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda bunday ortiqcha qaramlik bolaning individual rivojlanish jarayonini murakkablashtirishi, uning mustaqilligi va faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

A.A.Katayevaning ta'kidlashicha, intellektual faoliyati buzilgan bolalarda hayotining ilk kunlaridanoq atrof-muhitga qiziqishning pasayishi, befarqlik va umumiy patologik sustkashlik kuzatiladi. Bu holat bolada muloqotga bo'lgan dastlabki ehtiyojning shakllanishini qiyinlashtiradi. Bunday bolalarda, odatda, go'daklik davrida kattalar bilan muloqot qilish ehtiyoji yuzaga kelmaydi yoki juda sust rivojlanadi. Shuningdek, sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan "jonlanish kompleksi" (kattalar bilan muloqotga javoban paydo bo'ladigan emotsional-harakatli reaksiyalar majmui) kechroq shakllanadi yoki umuman kuzatilmaligi mumkin<sup>[2]</sup>.

Keyingi rivojlanish bosqichlarida ham intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarda beshik ustiga osib qo'yilgan o'yinchoqlarga yoki kattalar qo'lidagi o'yinchoqlarga nisbatan qiziqish yetarli darajada shakllanmaydi. Natijada kattalar bilan o'yinchoqlar vositasida birgalikdagi faoliyat asosida muloqot qilishga o'z vaqtida o'tilmaydi va muloqotning yangi shakli – situativ-ishchan (vaziyatga bog'liq amaliy) muloqot yuzaga kelmaydi.

Hayotining birinchi yilida bunday bolalar "o'z" va "begona" kattalarni farqlay olmaydilar, holbuki normal rivojlanishda bu qobiliyat hayotning birinchi yarim yilligidayoq shakllanadi. Shu bilan birga, ularning nutq rivojlanishi ham sezilarli darajada orqada qoladi.

Intellektual yetishmovchiligi bo'lgan bolalarda kasallikning o'ziga xos xususiyatlari tufayli atrof-muhitni faol o'zlashtirish jarayonida turli xil buzilishlar kuzatiladi. Jumladan, nutq nuqsonlari, faoliyat va nutq o'rtasidagi nomuvofiqlik, og'zaki ko'rsatmalar asosida o'z harakatlarini muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklar, tafakkur faoliyatining buzilishi hamda ko'rgazmali-obrazli tafakkurning yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Bu holatlar, shubhasiz, muloqot jarayonining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki muloqot bola tomonidan yangi ijtimoiy tajribaning kattalar vositasida o'zlashtirilishi asosida shakllanadi. Bu jarayonda nutqning rivojlanishi, bolaning ehtiyojlari dinamikasi va xilma-xilligining shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ehtiyojlar aynan muloqot orqali amalga oshiriladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi va muloqotdagi faollikning pastligi ularning psixik hamda shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday bolalarda kommunikativ faoliyatni rivojlantirish korreksion-pedagogik ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Intellektual nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ faoliyatini shakllantirishga qaratilgan korreksion ishlar nafaqat bolalar bilan, balki ota-onalar va pedagoglar bilan ham olib borilishi lozim. Bunday faoliyat ma'rifiy-ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, psixologik va pedagogik yordam ko'rsatish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Chunki bola uchun eng yaqin va emotsional jihatdan ahamiyatli bo'lgan insonlar – ota-onalar, oila a'zolari hamda pedagoglar muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda, ijobiy kommunikativ muhit yaratishda va bolani ijtimoiy hayotga moslashtirishda muhim rol o'ynaydilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Каган, М.С. Человеческая деятельность [Текст] / М.С.Каган – М., 1974. – с.214
2. Катаева А.А., Стребелева Е.А. Дошкольная олигофренопедагогика: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2005. – 208 с.
3. Mamedov K., Sagatov A., Pulatova P. "Oligofrenopedagogika asoslari". – Toshkent.: O'qituvchi. 1994. – 89 b.
4. Muminova L.R. va b. Maxsus psixologiya / O'quv qo'llanma / Toshkent. 2013. – 272 b.
5. Musayeva N. Aqli zaif talabalarda verbal va noverbal muloqotga kirishish ko'nikmalarini ta'lim jarayonida rivojlantirish.: Avtoref. diss. ... ped. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD). –T.: 2018. – 24 b.
6. Nurkeldiyeva D.A. Aqli zaif bolalarning maktab ta'limiga nutqiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – T.: 2001. - 127 b.
7. Петрова В.Г. Белякова И.В. Кто они, дети с отклонениями в развитии. М.: Флинта: Московский психолого-социальный институт, 1998. 104 с.
8. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии [Текст] / С.Л.Рубинштейн – СПб.: Издательство, 2002. – 720 с.
9. Выготский, Л.С. Психология развития ребенка [Текст] / Л.С.Выготский – М.: Смысл, 2005. – 1136 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.